

**AXMAD DONISHNING PEDAGOGIK QARASHLARIDA
OILA TARBIYASI MASALALARI**

A'zamova Mashhuraxon Nodirxon qizi

FarDU pedagogika yonalishi 3-bosqich talabasi

mashxuraazamova4@gmail.com

+998902742514

Annotatsiya: ushbu maqolada taniqli olim, o'z falsafiy qarashlari bilan 19-asrda Buxorodagi taraqqiyparvar muhitning yuzaga kelishida muhim o'rinni egallagan tajribali pedagog, tarixchi, ma'rifatparvar Axmad Donishning oila muhitida farzandning kamol topishi, ota –ona xulqidagi barcha xususiyatlarning bola tarbiyasiga etadigan bevosita ta'siri, ota – onaning farzand oldida, farzandlarning esa ota-onalari oldidagi burchlari to 'g'risida bayon etiladi. Ahmad Donish o'z davrida ota-onaning ma'suliysi, farzandga beriladigan ibrat, halollik,adolat va bilimli bo'lishga undash g'oyalarini ilgari surgan. Maqolada uning pedagogik merosi zamonaviy tarbiya konsepsiysi bilan qiyosiy tahlil qilinib, bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolayotgan jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari Ahmad Donish qarashlarining oila tarbiyasida tutgan o'rnini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, ta'lif, tarbiya, gender, ota-ona, jamiyat, falsafa, oila pedagogikasi, xulq atvor, bola.

Asrlar davomida oila mavzusi, oiladagi tarbiya masalasi, jamiyat rivojiga oilaviy tarbiyaning bevosita ta'sirini o'rganish hamda tadqiq etish juda ko'plab qarashlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Turli davrlarda, turli insonlar tomonidan ushbu masalaga turli yondashuvlar, mukammal oila atamasini hayotga tatbiq etish yo'lidagi munozaralar shu kunga qadar davom etib kelmoqda. Bu borada sharqning buyuklaridan bo'lgan Forobiyidan tortib , Nosuriddin Tusiy,, Xofiz va Sa'diy, Nosir Xusrav, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Mirzo Ulug'beklar o o'zlarining falsafiy qarashlarida to'xtalib o'tganlar. Hattoki eng qadimgi manbalardan hisoblangan "Avesto"da ham oila xususida ko'plab fikrlar o'rin olgan. Unda aytildiki, "Porso, inson uy tiklab, olovga, oilasiga, xotin va farzandlariga o'rin ajratib bersa, uyida noz-ne'matlari muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqod, sobit olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, usha manzil muhtaramdir". Jumladagi "e'tiqod" so'zi oiladagi komil tarbiya, pok maslak kabi tushunchalarini o'zida mujassam etmoqda.

Xususan, yozuvchi, rassom, tarixchi, xattot, olim, ma'rifatparvar - Ahmad Donishning ham tarbiyaviy qarashlarida oila mavzusiga bo'lgan e'tibor keng qamrovlidir. Axmad Donishning yetakchi g'oyalari 19-asrda Buxoro taraqqiyparvar muhitining yuzaga kelishida muhim o'rinni tutgan. Olim tojik tilida ijod qilgan. Asli Sug'ut qishlog'idan bo'lgan. Mudarris oilasida tug'ilgan. Ahmad Donish boshlang'ich savodni onasidan olgan, so'ng maktabda, madrasada tahsil ko'rgan. Adabiyot, tarix, falsafa, tibbiyot, matematika,

astronomiya ilmini mustaqil o'rgangan. Uning asarlarida tarbiya falsafasi yaqqol namoyon bo'lib, jamiyatda har tomonlama barkamol shaxsni tayyorlashda muhim o'rin tutgan.

Ma'rifatparvar pedagog o'zining mashhur asari "Navodir-ul-vaqoe'" ning "'Nikox odoblari bayoni'", "'Uylanishning shartlari hamda qaynona va kelinning xusumati haqida'", "'Ishq muhabbat haqida'", "'Sevishganlarning odoblari'", "'Xaqiqiy va majoziy ishq bayonlari'", "'Farzandlarga vasiyat'" kabi boblarini oila va oilaviy tarbiya masalalariga qaratgan. Ahmad Donish yashagan davrda oila qurish juda mushkul bir masala hisoblanib, faqat pulga, boylikka asoslangan edi. Xotinlarning to`la huquqsizligi, erkaklarning cheksiz hukmronligi oilaning moddiy va ma`naviy asosi edi. Shuning uchun ham zamonaning boshqa dolzarb muammolari qatori oila va oilaviy tarbiya Donishning diqqatini tortganligi tabiiydir. Donishning qarashlari hozirgi zamon gender muammolarini hal etishdagi dolzarb muhokamalarning boshlang`ich qadamlari ham edi. Olim oilada ayollarning huquqsizligiga qarshi, ularni ma`naviy dunyolarini boyitish orqali bola tarbiyasiga ta`sir eta olish mumkinligini fikrlarida bayon etadi.

Donishning fikricha, oilada bola tug`ilishidan boshlab, ota onaning mas`uliyati oshadi. Chunki mas`uliyatli vazifani bajarish uchun ota onalar eng avval o`zlarining xulq atvorlari bilan bolaga namuna bo`lishlari lozim. Aks xolda bolalarning baxtsiz bo`lishlariga sababchi bo`ladilar. Donishning bu fikri bizning zamonamiz uchun ham ahamiyatli bo`lib, yaxshi tarbiyani faqatgina yaxshi xulqli ota-ona va tarbiyachigina bera oladi, degan g`oyani o`zida mujassamlashtiradi.

Donishning fikricha uylanishdan kelib chiqadigan maqsad kishilarning ijtimoiy va ma`naviy hayotiga bog`liq. Insonlar oila qurish ostonasida o`z shaxsiy ehtiyojlaridan tashqari, jamiyat rivojigada foyda keltiradigan barkamol shaxslarni tarbiyalab yetkazib berishni o`zlariga maqsad qilib olmoqliklari maqsadga muvofiqdir. Donish oiladagi bola tarbiyasi bilan bog`liq masalalarni yurt rivojini ta`minlovchi omillar sirasiga kiritadi. Bolaga bo`lgan qattiqqo`llikni qattiq tanqid ostiga oladi. Bolalarning ehtiyojlariga qulq solish kerak, uni imkoniyati boricha qondirish lozim. Do`q-po`pisa yaramaydi. Bolalarning ko`ngliga ozor bergen odam ularning xotirasida yomonlik ramzi bo`lib qoladilar. Ular tomonidan sodir bo`lgan gunoh va xatoliklarni tuzatish va kechirish lozim. Lekin hamma narsaning ham o`z me`yori bor. Bolani ortiqcha erkalatish ham yaxshilikka olib kelmaydi.

Donishning yozishicha, bolalar har doim ota-onasining oqilona g`amxo`rligini sezib turishlari kerak. Shunda o`z ota-onasiga mehr muhabbat uyg`onadi. Bundan tashqari, olim "Bolaga yoshligidan boshlab ilm va odob o'rgatilmasa, u katta bo`lganida na o`zini, na jamiyatni anglay oladi.", deydi. ushbu fikr xalqimizda azaldan mavjud bo`lgan "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir" jumlasining oqibatini o`zida jamlagan mulohaza sifatida jaranglaydi.

Pedagogning fikricha, ota onaning fe'l atvori bolaning muruvvatiga halal yetkazmasin, bola ota-onani ta`minlash uchun og`rilik qilmasin, yoki onaning gapiga kirib, o`z oilasidan osonlikcha voz kechmasin, ularga achchiq qilib yomon yo`llarga kirmasin. Donish farzandlarning qaysi yo`lda yurishlari ota-onalarning qaysi yo`lga yo`naltirishlariga bog`liq ekanligini ajoyib tarzda tushuntirib beradi. Ularning ilmli, ma'rifatli bo`lishlarini

ta`minlash esa ularning eng asosiy vazifalaridan biriliginи aytadi. Donish ota sifatida o`z farzandlariga eng oliv ilm hunarlarni o`rganishni maslahat beradi. Chunki ilmsiz, hunarsiz yashashdan ma`no yo`q. Hech kimga kerak bo`lmasdan, boqmandalik bilan hayot kechirish inson nomiga munosib emas. Oilaning muqaddasligi ham aynan insoniylikning asoslari ushbu go`shada qaror topganligi bilan o`lchanadi. Yana olim aytadiki, "Farzand ota-onaning fe'l-atvordan tarbiya oladi. Agar uyda rostgo`ylik bo`lsa, bola ham rostgo`y bo`ladi". Darhaqiqat namuna asosida bola xulqiga singdirilgan har bir fazilat mustahkam o`rnashadi. Oilaviy rishtalarni muqaddasligini ham bolalar oilada ota-onalarning bir-birlariga bo`lgan munosabatlariga qarab anglab yetadilar. Ular o`rtasidagi hurmat, ishonch, mehr oqibat kabi samimiy chin insoniy tuyg`ular farzandlarga qoladigan merosning eng yuqorisida turadi. Bunday muqaddas tuyg`ular inson hayoti davomida ezguliklarga boshlaydi, yomonliklardan qaytaradi.

Ahmad Donish o`z davrida bola tarbiyasining asosiy omili sifatida oilaviy muhit, ota-onaning ma`naviy-ma'rifiy saviyasi va shaxsiy ibratini alohida ta'kidlagan. U bolaning shaxs sifatida shakllanishida otaning halolligi, onaning mehribonligi va uy ichidagiadolat muhitining muhimligini ilgari surgan. Farzandni yoshligidan boshlab ilmga, odobga, mehnatga o`rgatish zarurligini qayta-qayta ta'kidlagan.

Bugungi kunda esa bola tarbiyasiga oid qarashlar kengayib, psixologik, ijtimoiy va huquqiy omillarni ham qamrab olgan. Zamonaviy pedagogika bolaning individual qobiliyatlariga, erkin fikrlashiga va psixologik holatiga katta e'tibor qaratadi. Ahmad Donish bu jihatlarni bevosita atamasida ifodalamagan bo`lsa-da, uning fikrlarida bola shaxsiga hurmat, uni mustaqil fikrlashga o`rgatish, yolg'on va zo'ravonlikdan tiyish kabi qadriyatlar o`z aksini topgan. Bu esa bugungi inklyuziv va huquqiy asoslangan tarbiya konsepsiyasiga uyg'un keladi.

Shuningdek, hozirgi zamonda AKT vositalarining tarbiyadagi roli ortib bormoqda. Ahmad Donish bu texnologiyalar mavjud bo`lmagan davrda yashagan bo`lsa-da, u o`z davri uchun ilg`or metodlar — suhabat, kitob o`qish, ibrat ko`rsatish orqali tarbiya berishni ilgari surgan. Bugungi kunda ham bu usullar o`z dolzarbligini yo`qotmagan, balki zamonaviy vositalar bilan boyitilmoqda

Axmad Donish asarlarida nafaqat ota-onalarning burch –vazifalari, balki voyaga yetgan farzandlarning ham oldiga bir qator vazifalar qo`yadi. "Ota-onaning ahvoldidan imkon boricha xabar olsinlar va ularga yordam bersinlar", - deydi.

"Qaysiki farzand o`z farzandlarining ham oqibatl bo`lishini istasa, avvalo o`z ota-onasiga mehr ko`rsatsin", deydi olim.

Xulosa qilib aytganda, pedagogning yuqoridagi fikrlari, o`z navbatida, hozirgi zamon oila pedagogikasining rivoji uchun asos bo`lib xizmat qilayotganligini aytish mumkin. Insonning bu dunyoda yashashdan asl maqsadi ham o`zidan yaxshi nom, yaxshi surriyodlar qoldirishdir. Bu maqsadga erishish esa oson ish emas. Oilada nechta farzand bolsa, barchasi o`zgacha dunyoqarash, o`zgacha fe'l-atvor, o`zgacha xohish-istiklarni o`zlarida mujassam etadilar. Har biriga alohida parvarish, alohida munosabat ko`rsatish ota-onalardan yuksak pedagogic mahorat, ulkan sabr va bardoshni talab etadi. Lekin vaqt o`tib, barcha

qiyinchiliklar ortidan farzandlar kamolini ko`rish, ularning yutuqlaridan zavqlanish, ularning ortidan keladigan yaxshi so`zlarni eshitib faxr tuyg`usini tuyish insonni o`tgan umri behuda ketmaganligiga amin qiladi. Axmad Donish qarashlaridagi bosh g`oya ham barkamol oila tarbiyasi orqali inson umriga mazmun bag`ishlash hamda jamiyatga eng kerak paytda “Labbay” deb javob bera oladigan avlodlarni yetkazishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.G`Ganiyev .Axmad Donishning pedagogic qarashlari Samarqand 1990 78 -86 betlar
2. Abdullaeva N. Pedagogik tafakkur taraqqiyoti. — Toshkent: TDPU, 2005
3. Donish A. Navodir-ul-vakoe'. — Toshkent: Fan nashriyoti, 1960.
4. Donish A. Risola dar tarbiyat. — Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961.
5. Dilorom Tohirova. Ahmad Donishning pedagogik qarashlari va ularning zamонавиј аhamiyati. // “Pedagogik mahorat” jurnali, 2022, №3.
6. Karimova Z. Oila pedagogikasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2019
7. To'xtaxodjaeva M. O'zbek ma'rifatparvarlari pedagogik qarashlari. — Toshkent: O'qituvchi, 1994.
8. Xolbekov M. Ahmad Donishning ijtimoiy-siyosiy va pedagogik qarashlari. — Toshkent: Fan, 1970.
9. .Nazarov Q. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: TDPU, 2012.
10. O. SH. Axmadov. 19-asr Buxoro taraqqiyparvari Axmad Donish. Tarbiya haqida . 2019